



## FACTORS AFFECTING THE SPREAD OF INFRACTION AMONG MINORS

*Gulmira Turdiboeva*

*free explorer*

*Karshi State University*

*Karshi, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Republic of Uzbekistan, minors, trespass, law making, law.

**Received:** 10.09.24

**Accepted:** 12.09.24

**Published:** 14.09.24

**Abstract:** It is known that in recent years there have been cases of widespread violation among young people. This article contains analytical information about the factors affecting the spread of violations among minors in the Republic of Uzbekistan.

## VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNING YOYILISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN OMILLAR

*Gulmira Turdiboyeva*

*erkin izlanuvchi*

*Qarshi davlat universiteti*

*Qarshi, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi, voyaga yetmaganlar, huquqbuzarlik, qonun chiqarish, huquq.

**Annotatsiya:** Ma'lumki so'nggi yillarda yoshlar orasida huquqbuzarlikning keng yoyilishi holatlari avj olmoqda. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikning yoyilishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida tahliliy ma'lumotlar aks etgan.

## ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАСПРОСТРАНЕННОСТЬ ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

*Гулмира Турдибоева*

*свободный исследователь*

*Каришинского государственного университета*

*Кариши, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Республика Узбекистан, несовершеннолетние, правонарушения, законодательство, право.

**Аннотация:** Известно, что в последние годы участились случаи широкого распространения

правонарушений среди молодежи. В данной статье отражены аналитические данные о факторах, повлиявших на распространение правонарушений среди несовершеннолетних в Республике Узбекистан.

---

### KIRISH

Mustaqillikning ilk yillarida davlat va jamiyat hayotidagi turli qiyinchiliklar va muammolar o'z o'rnida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlikning turli ko'rinishlarining ortib borishiga xizmat qildi. Ushbu muammolar jamiyatning boshqa a'zolariga bir karra ta'sir qilsa, yoshlarga ikki karra ta'sir qildi. Chunki ular jamiyatdagi o'tish davridan tashqari, o'zlari ham yoshlari bilan bog'liq o'tish davrini boshlaridan kechirdi.

Sobiq SSSR tuzumi parokandalikka yuz tutgach, yoshlarimizni jamoalarga birlashtirib turuvchi tuzilma va qo'mitalar yo'qolib ketdi. Boz ustiga, iqtidorli yoshlarimizdan tarkib topgan ko'plab uyushma va to'garaklar pullik bo'lib ketdi. Diskotekalar yopilib, masjidlar soni osha bordi. Mamlakatimizning u yoki bu hududida ishchi o'rinlarining yetishmasligi yoshlarimiz bandlik holatlaridagi uzilishlarni keltirib chiqarayotgani ham sir emas. Yoshlarimiz ongida bo'shliqlar vujudga kelib qolishi goyaviy tarbiyada talay yo'qotishlarga sabab bo'lishini amalda ko'rdik[1]. Bu saboqni bir daqiqa ham unutmasligimiz lozim.

### ASOSIY QISM

Qonunchilikni mustahkamlash va bu boradagi davlat va jamoat tashkilotlari faoliyati samaradorligi past bo'lib, bu borada oila, mahalla zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar ko'p joylarda qoniqarsiz bajarildi. Bu esa mamlakatimizda voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishning umumiy ahvoriga jiddiy ta'sir o'tkazdi[2]. 1992 yili 1991 yilga nisbatan jinoyat sodir etishda qatnashgan maktab o'quvchilar soni 2 foizga (1496-1525) ortdi. Har oltita voyaga yetmaganning bittasi hunar-texnika bilim yurtida o'qigan, har uchtadan bittasi ishlamagan va o'qimagan.

Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarlik va jinoyatchilik ahvoli bu davrda ham tashvishli bo'lib turdi. Voyaga yetmaganlarni hayotda zarur bo'lgan huquqiy bilimining yo'qligi, o'smirlarda qonunchilikni tinglash qobiliyatini yaratmaganliklari, bu esa ularning huquqiy ongini rivojlantirish o'rniga, pasayishiga olib keladi, natijada qilgan ishlariga javob bera olmaslik holatlari ortib bordi. Masalan, Toshkent shahridagi bir qator o'rta maktab va hunar texnika bilim yurtlari o'quvchilari bilan o'tkazilgan savol-javobda "O'zbekiston Respublikasida qonun chiqarish huquqiga qaysi organ ega?" degan savolga 2000 o'quvchidan 50 foizi to'g'ri javob bera olmagan, 28 foiz o'quvchi esa necha yoshdan jinoiy javobgarlikka tortilish haqida bilishmagan va h.k. Namangan tumanidagi 30-o'rta maktab o'quvchilariga "Qonun buzganga qanday javobgarlik

belgilangan?" deb berilgan savolga 62 foiz o'quvchi javobgarlik va uning turlari xaqida bilmasliklarini aytishgan[3].

O'quv-tarbiyaviy ishlar saviyasining pastligi, o'smir yoshlarning tarbiyasi bilan bog'liq barcha jiddiy masalalarga mansabdor shaxslarni ahamiyat bermasliklari, har bir o'smir bilan alohida-alohida suhbat o'tkazilmasligi o'quvchi o'smirlar o'rtasidagi jinoyatchilikning ahvoriga o'z ta'sirini ko'rsatdi .

1992 yili O'zbekistonda foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lmagan 1869 nafar o'smir jinoyat sodir etishda qatnashgan bo'lsa, shulardan 1442 nafari voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi inspeksiya ro'yxatidan o'rin olgan[4]. Xalq ta'lim organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiya va inspeksiya, jamoatchilik vakillari nazoratidan chetda kolgan ko'pgina o'quvchilarning barcha harakatlarini kechirish va jazosiz qolishi ularning qayta tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi ashaddiy jinoyatchilik o'sib bordi. Masalan, 1991 yili bu boradagi ko'rsatkich 342 tadan, 1992 yili 420 tagacha o'sdi. Masalan, Buxoro tumanidagi 1-hunar-texnika bilim yurti o'quvchisi, 1977 yilda tug'ilgan Toshev fuqarolarning shaxsiy mulkini o'g'irlaganligi uchun 3 yilga xukm ijrosi kechiktirilib ozodlikdan mahrum qilingan. U bilan hech qanday alohida ish olib borilmagan, xulqi nazorat qilinmagan, natijada Toshev 1992 yil fevral oyidan 1993 yilgacha 3 marta davlat va fuqarolarning shaxsiy mulkini o'g'irlaganligi uchun yana jinoiy javobgarlikka tortiladi[5] .

1992 yili O'zbekistonda 15 dan ortiq vazirlik va muassasalar tomonidan voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikning oldini olishga yunaltirilgan milliy dastur ishlab chiqilgan va u Vazirlar Mahkamasi tomonidan ma'qullangan. Ammo bu milliy dastur hayotga yetarli darajada tatbiq etilmadi.

Yana bir tashvishli xol shundan iborat bo'ldiki, huquqbuzarlik uchun ichki ishlar organlariga olib kelingan bolalarning soni kupaygan bo'lsada, ammo ularga tegishli ta'sir chora ko'rish to'g'risidagi hujjatlarni tegishli idoralarga yuborish xollari sezilarli darajada kamaygan. Shu bilan birga, ularning ota-onalariga nisbatan qo'llanilgan ta'sir choralari ham kamayib, ota-ona huquqlarini chegaralash, bolasini tarbiyalashidan mahrum etish kabi ta'sir usullarini qo'llash haqida takliflar tegishli idoralarga juda kam berilgan. Agarda Respublika bo'yicha hammasi bo'lib 65 nafar shaxs ota-ona huquqlaridan mahrum etilgan bo'lsa, ularning ko'pchiligini poytaxt fuqarolari tashkil etdi. Boshqa hududlarda esa (Samarqand, Jizzax, Farg'ona, Andijon, Namangan, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida) bunday choralari umuman qo'llanilmagan.

Avval jinoyatlarni sodir etib, profilaktik ro'yxatga olingan o'smirlar bilan olib borilgan ishlar ham susaytirib yuborilgan edi. Jumladan, 90 nafar bunday shaxs qayta jinoyatlarni sodir etib, ularning har bir uchinchisiga, hattoki, jamoat tarbiyachisi ham tayinlanmagan edi. Amaliy ishlarning tahlili va joylarda o'tkazilgan tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, ichki ishlar organlari

faoliyatida bu yo'nalishda bir qancha tashkiliy kamchilik hamda amaliy xatolar ham mavjud edi. Chunonchi, joylarda ichki ishlar organlarida voyaga yetmaganlar huquqbuzarligiga oid to'la va haqqoniy ma'lumotlar mavjud emas edi. Bu boradagi statistik hisobotda ushbu masalaga oid kerakli ko'rsatkichlar kiritilmadi. Unda faqatgina yosh huquqbuzarlarning umumiy soni va bir yoki ikki turdagi ma'muriy huquqbuzishlarini sodir etgan shaxslar haqida ma'lumotlar kiritildi. Ular qatoriga bedarak yo'qolganligi va qarovsiz qolganligi oqibatida milisiya organlariga olib kelingan bolalar ham kiritilgan. Shuning uchun, barcha huquqbuzishlarning umumiy soni va turlari, ularni sodir etgan bolalarning ijtimoiy tarkibi va yoshi, ya'ni jinoyatchilik ahvoriga doir ma'lumot noaniqligicha qoldi.

"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari tug'risida"gi Qonunning 7-moddasida voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiyaviy xarakterga ega bo'lgan tarbiyaviy chora ko'rish huquqi, jumladan, jarima solish faqatgina sud organlariga berilgan. Ammo ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etgan bolalarga nisbatan ichki ishlar organlari jarima qo'llab kelgan.

Bolalar o'rtasida huquqbuzarlikning kelib chiqish sabablaridan yana biri ularning hech qayerda o'qimasdan, foydali mehnat bilan shug'ullanmasdan, "ko'cha" ta'siriga tushib qolib, jinoyatlarga qo'l urganliklari haqida anchagina ma'lumotlar aniqlanadi. Viloyat, tuman, shahar xalq ta'limi boshqarma va bo'limlari rahbarlarining bu masalaga mas'uliyatsizlik bilan yondashganliklari, ko'pchilik hollarda ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalashdan chetda qolganliklari tufayli vaziyat yanada murakkablashdi. Masalan, Respublika bo'yicha 1996 yilda ichki ishlar idoralariga olib kelingan voyaga yetmagan bolalardan 58 mingdan ortig'i maktab va hunar-texnika bilim yurti o'quvchilari bo'lib, ularning 17 mingga yaqini o'qishni tashlab ketgan, ishlamay yurgan, ikki yarim mingti spirtli ichimlik iste'mol etgan, 6700 nafari o'zboshimchalik bilan uylaridan yoki maxsus ta'lim-tarbiya muassasalaridan ketib qolgan bolalar edi[6].

Turli tungi dam olish maskanlarida voyaga yetmagan o'smirlarni ota onalari nazoratsiz bo'lishlari ko'payib borishi ham o'z o'rnida yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik ko'rsatkichining ortib borishiga ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatdi. Voyaga yetmaganlarni tungi vaqtlarda ko'ngil ochish (dam olish) joylarida bo'lishiga yo'l qo'yganliklari uchun jami 426 nafar, shundan 51 ta restoran, kafe, bar, 14 ta tungi klub, 311 ta kompyuter zal va internet klub hamda 50 ta boshqa ko'ngil ochish (dam olish) joylari rahbarlariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJtKning tegishli moddasi bilan ma'muriy ish qozg'atildi, bugungi kunga qadar ularning 382 nafaridan 149 mln 94 ming 64 so'm miqdorida jarima undirildi. Ta'lim-tarbiya berish borasida majburiyatlarni bajarmaganlik uchun 1137 nafar ota-ona, farzandining majburiy ta'limni olishiga to'sqinlik qilganligi uchun 253 nafar ota-ona Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddalari bilan javobgarlikka tortildi[7].

Viloyat hokimiyati qoshidagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar faoliyati o'rganilganda, ish rejalari mazmunan takrorlanib kelgan. Qolaversa, rejaga kiritilgan ishlarning ko'pi bajarilmagan. Viloyat komissiyasi tomonidan tuman, shahar hokimliklari qoshidagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi hay'atlarga hech qanday amaliy yordam ko'rsatilmagan. O'tkazilgan tantanavor xay'at yig'ilishlarida hech bir hudud komissiya raislarining hisoboti tinglanmagan, huquqbuzarlik va jinotchilik ahvoli umumlashtirilib, yutuq hamda kamchiliklar xususida deyarli biror vaqtli matbuot va viloyat televideniyesi orqali g'oyaviy-tarbiyaviy chiqishlar o'tkazilmagan.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishiga asosan ota yoki onaning xorijga mehnat muxojirligiga chiqib ketishi va farzandlarining nazoratsiz qolishi, oilaviy kelishmovchilik va ajralishlar, ayrim ota-onalarning ichkilikka ruju qo'yganligi tufayli farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizlik, maktab o'quvchilarining ayrim katta yoshdagi huquqbuzarlar ta'siri doirasiga tushib qolishi, ba'zi maktablarda fuqarolarning o'zini-o'zini boshqarish organlari bilan hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, profilaktik nazoratga olingan o'quvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanishda ayrim hollarda ma'sullarning to'liq shug'ullanmasligi kabi omillar sabab bo'lgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aloviddinov M, «Tarbiyada uzilish bo'lmasligi kerak» deydi buxoro viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari, adliya katta maslahatchisi Olimjon Aslonov // Huquq, 2000 yil 29 noyabr.
2. Mustafoyev B, Yoshlar orasida qonunbuzarlikka qarshi kurash va uning oldini olish choralari / Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari respublika konferensiyasi materiallari). -T.: O'zbekiston, 1997. –B.34.
3. O'z MA, M-13-fond, 1-ro'yxat, 466-ish, 6-varaq.
4. O'z MA, M-76-fond, 1-ro'yxat, 240-ish, 10-varaq.
5. O'z MA, M-76-fond, 1-ro'yxat, 240-ish, 11-varaq.
6. O'z MA, M-76-fond, 1-ro'yxat, 240-ish, 50-varaq.
7. O'z MA, M-76-fond, 1-ro'yxat, 240-ish, 51-varaq.